

**DAVLAT AXAMIYATIDAGI UMUMFOYDALANUVDAGI AVTOMOBIL YO'LLARIDA SAQLASH
ISHLARINI BAJARISH BO'YICHA
SHARTNOMA**

№SD12

« 25 » yanvar 2022 yil

Karshi sh.

O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 2 oktabrdagi №ZRU 117 sonli «Avtomobil yo'llari» to'g'risidagi qonuni va Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 16 oktabrdagi №215 sonli «Davlat mulkini va davlat ulushi bor korxonalarni samarali boshqarish» to'g'risidagi qarori asosida.

1.SHARTNOMA BO'YICHA TOMONLAR

Buyurtmachi: Qashkadaryo viloyati avtomobil yo'llari hududiy bosh boshkarmasi nomidan buyruq asosida ish yurituvchi boshqarma boshlig'i B.Raximov.

Pudratchi: Kitob TYFUK nomidan buyruq asosida ish yurituvchi korxonada direktori S.Sultonov.

Amaldagi konun koidalar asosida mazkur shartnomani tuzdik.

2.SHARTNOMANING MAZMUNI

Ikkala tomonga xam foydali bo'lgan va birgalikda ish olib borish uchun kuyidagi mazmundagi ushbu o'zaro shartnoma tuzildi.

2.1. Moliya vazirligi va Avtomobil yo'llari Davlat Qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarini Saqlash ishlarining smetasi asosida manzilli ro'yxatga ko'rsatilgan Kitob TYFUK xisobidagi davlat axamiyatdagi avtomobil yo'llar uchun saqlash ishlarini bajarish.

3. SHARTNOMANING BAXOSI

3.1. Shartnoma baxosi Moliya vazirligi va Avtomobil yo'llari Davlat Qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarini Saqlash ishlarining vaqtinchalik smetasi asosida manzilli ro'yxatga ko'rsatilgan Kitob TYFUK xisobidagi davlat axamiyatdagi avtomobil yo'llar uchun narxlarda 231 161 000 (Ikki yuz o'ttiz bir million bir yuz oltmish bir ming) so'm shu jumladan boshqaruv ma'muriy aparatini saqlash harajati 211 596 000 (Ikki yuz o'n bir million besh yuz to'qson olti ming) so'mni tashkil etadi.

4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Xisobidagi davlat axamiyatdagi avtomobil yo'llarni saqlash ishlari uchun to'lab berilgan mablag'ni maqsadli ishlatilishiga javobgardir.

4.2. Xisobidagi davlat axamiyatdagi avtomobil yo'llarni saklash ishlari uchun smeta xujjatlarini ishlab chikadi va buyurtmachiga takdim etadi.

4.3. Xisobidagi davlat axamiyatdagi avtomobil yo'llarining xamma kismida avtomobillarning uzluksiz va bexatar xarakatini ta'minlaydi, xafsizligi bo'yicha to'lik javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

4.4. Xisobidagi davlat axamiyatdagi avtomobil yulda mavjud bulgan yul jixozlari, yo'l belgilar, avtobekatlar, 1-toifa tusiklar, kupriklar, kuvurlar va boshka yordamchi inshootlarni to'liq yaroqli xolda saqlaydi.

4.5. Yulda mavsumiy saklash ishlarini amalga oshiradi.

4.6. Yo'lda rejalashtirilgan saklash ishlari rejasini bajarilishini ta'minlaydi.

4.7. Yulning ximoya zonasi mintakasida nokonuniy obyektlarni kurilishiga yo'l ko'ymaydi.

4.8. Yo'lning xolatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, maxalliy sertifikatiga ega bo'lmagan materiallardan saqlash ishlarida foydalanmaydi.

4.9. Fors – major xollardan tashkari xar kandy xolda yo'lga yetkazilgan zararni o'z xisobidan tiklab beradi.

4.10. Bajarilgan ishlar ma'lumotnomasini (F-3 shakl) va ruyxatini (F-2,F-5 shakl) xar oyning 25 sanasida buyurtmachiga takdim etadi.

4.11. Yo'lning xolati to'g'risida doimiy ma'lumotga ega bo'ladi va buyurtmachi istagan vaqtda to'liq axborotni taqdim etadi.

4.12 Davlat organlari va Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi tomonidan joriy kilingan xisobotlarni o'z vaktida buyurtmachiga topshirilishini ta'minlaydi.

4.13. Baxorgi va kuzgi texnik kurik, manfaatdor organlar tomonidan utkazilgan kuriklar davomida va buyurtmachi tomonidan avtomobil yullarda aniklangan nosozliklarni uz vaktida bartaraf etilishini ta'minlaydi.

5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Davlat axamiyatdagi avtomobil yullarni saklash ta'mirlash ishlari uchun ishlab chiqilgan smeta xujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlaydi.

5.2. Rejada belgilangan ishlarni bajarish uchun choraklik 15% mikdoridagi bo'nakni oldindan tulaydi.

5.3. Bajarilgan ishlarni xar oyning 25 sanasigacha kabul kilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlar tulik kabul kilib olingandan sung tulov amalga oshiradi.

5.5. Yulga ta'lukli miyoriy xujjatlar, xatlar, buyruklar va rejadagi o'zgarishlarni o'z vaktida yetkazadi.

5.6. Davlat axamiyatdagi avtomobil yo'llarni istikbolli rivojlantirish dasturini ishlab chikishda ishtirok etadi.

6. TOMONLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI.

6.1. Pudratchi tasdiqlangan rejadagi ishlarni uz vaktida bajarilishini ta'minlamagan takdirda , kechiktirilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar kiymatining 0,5 % (jami penya mikdori bajarilmagan ishlar kiymatining 5% dan oshmasligi lozim) mikdorida jarima tulaydi.

6.2. Buyurtmachi tasdiklangan smeta asosida bajarilgan ishlar kiymatini o'z vaktida tulab berilmagan kismiga, kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5 % (jami jarima mikdori bajarilmagan ishlar kiymatining 5% dan oshmasligi lozim) mikdorida penya tulaydi.

7. SHARTNOMANI BEKOR KILINISHI.

7.1. Shartnoma ikkala tomonning tashabbusi bilan belgilangan konun va tartiblarga to'g'ri keladigan talablar bo'yicha yoki ishn davom etishga xojat bo'lmagan taqdirda bekor qilinishi mumkin.

7.2. Pudratchining raxbar, bosh xisobchisi, muxri va bank rekvizitlari o'zgartirgan taqdirda shartnoma o'z kuchini yo'qotadi va qo'shimcha kelishuv tuzish uchun buyurtmachiga murojat kilinadi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bogliq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan konunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l ko'yilmaganligini, taklif etilmaganligini) ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki xar qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi xakida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb kilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimdari tomonidan xar kanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orkali) sodir etilishiga yo'l ko'ymaydi:

a) nazorat kiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, solik solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda konunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagi ustunlikka ega bo'lish yoki saklab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da kilinishi, berilishiga;

b) konunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatidan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chikishiga qonuniy tus berish. bunday pul mablaglari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish ko'chirish usulini, pul mablaglariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan hakiqiy egalik xuquklarini yoki uning kimga karashlilikini yashirishga;

v) korrupsiyaga oid xuquqbuzarlik sodir kilish uchun ta'magirlik kilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid kilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni xamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

5. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda, bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan xujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan xarakat kiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, xukuqshunoslar, xisobchilar, ular nomidan xarakat kiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishi shart:

-korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

-ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

- ularni faqat tarafning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb kilish;

- ularga konunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan xaq miqdoridan asossiz ravishda ortikcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan xarakat kiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi ko'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari xakida xabar berilganligi uchun ularga tazyik o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi ko'shimcha shartlarning 4 va 5-bandlarida belgilangan majburiyatlarini buzilishiga yo'l qo'rganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu xam zudlik bilan xabardor kilishi va ushbu taraflar okilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab kilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan koidabuzarliklarni bartaraf kilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari xakida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor kilishga hamda zararni to'lik koplav berishni talab kilishga xakli.

9. KELISHMOVCHILIKLARNI KO'RIB CHIQISH.

8.1. Ushbu shartnomadagi talablarni bajarilishi davomida paydo bulgan kelishmovchiliklar avvalo ikkala tomonining uzaro kelishuvi orkali, unda xam xal bulmasa iktisodiy sud tomonidan kurib chikilib xal kilinadi.

10. FORS- MAJOR XOLATLARI.

9.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunda qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

9.2. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

9.3. Agar tomonlar shartnomani bajarish muddatlari buyicha kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

11. SHARTNOMA MUDDATI.

10.1. Shartnoma 2022 yil «25» yanvardan 2022-yil «31» dekabrgacha amal kiladi.

12. YURIDIK XULOSA.

11.1. Yuridik xulosa shartnomaga aloxida ilova kilinadi.

Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bulgan ikki nusxada tuzildi. Bir nusxa buyurtmachida, bir nusxa pudratchida saklanadi.

XUKUKIY MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

«BUYURTMACHI»

Qashkadaryo viloyati AYYBB
Manzili: Qarshi.sh. Xonobod shox kuchasi-23
Tel.faks 221-56-81
Shv/x 3045 1086 0104 0170 4516 211 8001
Budjetdan mablag' oluvchi STIRi 201998818
OKONX 84130

«PUDRATCHI»

Kitob TYFUK
Kitob sh. M.Tursunzoda -100
Milliy bank Shaxrisabz fil
MFO 00191 INN 206 994 614
x/r 2262 6000 6047 6507 1004
OKONX 42110

Kashkadaryo viloyati AYYBB

Boshlig'i:  B. Raximov

Xuqiqatshunos:  B. Mirzaev

G'aznachilik bo'linmasi nomi

G'azna x/v 23402000300100001010
Bankning nomi: Toshkent Markaziy bank XKKM
MFO 00014
G'aznachilik bo'linmasi SITRi 201122919

Kitob TYFUK

direktori:  S. Sultonov

